

## **QON MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISH**

**Umirov Nurulla Usanovich**

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

**Istamov To‘lqin Olimjon o‘g‘li**

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

Hozirgi davrda ta’lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarining kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

**Kalit so‘zlar.** Interfaollik, hamkorlik, ijodkorlik, individuallashish, “Rolli o‘yin” metodi, “Zinama-zina” o‘yin metodi.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma, malaka darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi.

Respublikamizda olib borilayotgan ta’lim-tarbiya islohotlari, mutaxassis kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, oliy o‘quv yurtlarida pedagoglarning metodik mahoratini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchilarimiz bu vaziyatdan chiqishda ularni o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashib, psixologik jixatdan qayta ko‘rib chiqib, ularni yangi sharoitda bolalarga samimiyn munosabatda bo‘lish, ularni rivojlantirishda shaxsiy yondashuv, hamkorlik, ijodkorlik, individuallashish asosida, ularni ta’lim - tarbiya jarayoniga motivatsiya hosil qilish orqali ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlashga barcha kuchlarini va e’tiborlarini qaratishni talab etadi.

Agar o‘qituvchi o‘zining faoliyatni kuzatib borsa, tahlil qilsa, o‘ziga baho bera olsa, o‘z faoliyatiga tuzatishlar, yangiliklar krita olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarning o‘quv jarayoniga qo‘llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o‘zaro ikki kishi faolligi, ya’ni o‘quv – biluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o‘quvchi – o‘qituvchining o‘zaro muloqoti asosida kechadi.

**Interfaollik** – o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, u o‘quvchi va o‘qituvchi muloqotlarida sodir bo‘ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U o‘zining intelektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi, va o‘quv sifati va samaradorligini oshiradi. Interfaollik asosida o‘tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o‘quvchi chetda qolmaydi, ya’ni ular ko‘rgan, bilgan, o‘ylagan fikrlarini ochiq – oydin bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

### **Darslarni interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklari.**

- O‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi.
- O‘z vaqtida o‘quvchi – o‘qituvchi – o‘quvchilar orasida ta’limiy aloqalar o‘rnataladi.
- O‘qitish usullari ta’lim jarayonida turli xil ko‘rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruh).
- O‘quv jarayoni o‘qish extiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo‘ladi.
- O‘zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o‘quv materiali yaxshi esda qoladi.
- O‘quv jarayonida o‘quvchining o‘zi o‘ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi.
- O‘quvchi uchun dars qiziqarli o‘qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. - O‘qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo‘ladi.

Qonning inson organizmidagi ahamiyati juda ham muhum bo‘lib, uni tadqiq etish va ularni bo‘lajak biolog mutaxassislarga o‘rgatishda ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish biologiyani o‘qitish metodikasi faninining oldida turgan muhum va eng dolzarb masalalardan biridir. Shu sababli dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish talab etiladi.

### **Biologiyani o‘qitishda foydalaniladigan intrefaol ta’lim metodlar.**

**“Rolli o‘yin” metodi** - ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir. Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir.

Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan stsenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

#### **“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari**

- 1.Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yining maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yining maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yining maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
- 4.Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.

O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi.

#### **Rolli o‘yin metodi. Qonning shaklli elementlari gapiradi.**

Talabalarni 5 tadan iborat 3 ta kichik guruhlarga bo‘lamiz.

#### **1-guruh. Eritrotsitlar guruhi.**

Bu guruh a’zolari eritrotsit rolida qiziqarli ma’lumotlar beradi.

#### **2-guruh. Leykotsitlar guruhi.**

Bu guruh a’zolari leykotsitlar rolida qiziqarli ma’lumotlar beradi.

#### **3-guruh. Trombotsitlar guruhi.**

Bu guruh a’zolari trombotsitlar rolida qiziqarli ma’lumotlar beradi.

#### **“Zinama-zina o‘yin” metodi.**

**Texnologiyaning tavsifi.** Ushbu mashg‘ulot talaba (yoki o‘quvchi) larni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o‘quvchi) lar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi va taqdimot qilinadi.

**Texnologiyaning maqsadi.** Talaba (yoki o‘quvchi)larni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga,

uni ma'qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

### **Texnologiyaning qo'llash bosqichlari.**

-O'qituvchi talaba (yoki o'quvchi) larni mavzular soniga qarab 3-5kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (guruhrar soni 4 yoki 5ta bo'lgani ma'qul);

-Talaba(yoki o'quvchi)lar mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi.Har bir guruhg'a qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi;

-O'qituvchi guruh a'zolarin tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog'ozdag'i bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;

-Guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma(yoki rasm, yoki chizma) ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi.

-Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi.Taqdimot vaqtida guruhrar tomonidan tayyorlangan materialar, albatta, auditoriya(sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag(zina shaklida) ilinadi;

-O'qituvchi guruhrar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

### **"Zinama-zina" o'yini.Qon mavzusini o'qitishda**

Bu metodni quyidagicha amalga oshirish mumkin. Sinfdag'i o'quvchilar 3 guruhg'a bo'linadi. Har bir guruhning oxirida o'tirgan o'quvchilarga A, B, C, D, E harflari yozilgan javob varaqlari beriladi. O'qituvchi test savollari va javoblarni A, B, C, D, E variantlarida o'qiydi. Oxirgi o'rindagi o'quvchilar berilgan testning to'g'ri javobini quyidagi shartli belgilar asosida ko'rsatadi.

Masalan, quyidagi test savolini keltiraylik.

Eritrotsitlar necha kun yashaydi

Javob: A) 120 kun.

B) 60 kun.

C) 3-5 kun.

D) 110 kun.

E) 100 kun.

Ushbu test savoli o'qilishi bilan o'quvchilar A harfining tasviri tushirilgan varaqni ko'rsatadi. O'quvchilarning qaysi biri tezlik bilan to'g'ri javobni ko'rsata olsa, yonidagi sheringiga javob varaqalarini beradi. To'g'ri javobni ko'rsata olmagan

o‘quvchi yonidagi shеригига javob varaqalarini bermaydi. To‘g‘ri javobni ko‘rsatgan guruh bir zina yuqoriga ko‘tariladi. O‘qituvchi keyingi savolni o‘qiydi. Yana yuqoridagi holat qaytariladi. Savolning to‘g‘ri javobini ko‘rsatgandagina, javob varaqalarini yonidagi shеригига uzatadi. O‘quvchilardagi faollik, tezkorlik guruhiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar o‘quvchilar to‘g‘ri javobni ko‘rsata olmasa, guruh zinaning quyi pog‘onalarida qoladi. Javob varaqalari o‘quvchilar qo‘lidan bir-biriga o‘tib, oldingi qatordagi o‘quvchilarga yetib keladi va o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

Faol o‘qitish usullari haqida fikrimizni yakunlar ekanmiz o‘qituvchilarga shuni eslatishimiz kerakki, bu yerda ko‘rib chiqqan o‘qitish usullari o‘ziga xos alohida misollarga ega. Shuningdek, mazkur usullardan dars jarayonida foydalanish o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malakalarni ongli ravishda va samarali o‘zlashtirish imkonini beradi.

Bu turdagи metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim oluvchilarda o‘quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishslash, o‘rganilayotgan mavzu, muammolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g‘oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag‘batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmoni.
3. Shaxmurova G., Tog‘aeva G. “Biologiya fanini o‘qitish metodikasi” moduli bo‘yicha o‘quv –uslubiy majmua Toshkent – 2018
4. J.O. Tolipova. Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.2011.
5. R.Jo‘rayev va boshqalar “Zamonaviy informatsion va pedagogik texnologiyalar asosida tabiiy fanlari o‘qitish maqolalar Toshkent-Xalq ta’limi 2009 yil.
6. Tan Jeysen "Ta’lim instituti" Singapur 2018 y, 3,5